

MOLIYAVIY MATNLARNI TARJIMASIDA MANOLARNING SEMANTIK KRNGAYISHI VA TORAYISHI

Abdullaeva Shoxida Norqulovna

filologiya fanlari bo'yicha

falsafa doktori PhD

O'zDJTU Tarjimonlik fakulteti,

Ingliz tili tarjima nazariyasi kafedrası dotsenti

Shohi66@mail.ru

Annotation: This article demonstrates how the meaning of a word or phrase changes during translation when transitioning from the source language to the target language, either expanding or narrowing. It also examines semantic shifts in financial and economic texts, particularly using terms such as "credit crisis" and "financial aid," and shows how their initial meanings have expanded or narrowed to adapt to new social and economic conditions. Semantic changes in translation play a crucial role in adapting language to cultural and economic contexts.

Keywords: semantic expansion, semantic narrowing, financial terminology, economic texts, cultural adaptation, language changes.

Annotatsiya: Ushbu maqolada, tarjimada so'z yoki iboraning ma'nosining manba tilidan maqsad tiliga o'tishda qanday kengayishi yoki torayishi ko'rsatiladi. Shuningdek, moliyaviy va iqtisodiy matnlardagi semantik o'zgarishlar, xususan, "kredit inqirozi", "moliyaviy yordam", kabi atamalar misolida, ularning dastlabki ma'nolaridan qanday kengayib yoki torayib, yangi ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarga moslashganligi ko'rsatiladi. Tarjimadagi semantik o'zgarishlar tilni madaniy va iqtisodiy sharoitlarga moslashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: semantik kengayish, semantik torayish, moliyaviy terminologiya, iqtisodiy matnlar, madaniy moslashuv, tilda o'zgarishlar.

Аннотация: В данной статье показано, как при переводе значения слова или выражения изменяется при переходе от исходного языка к целевому языку, расширяясь или сужаясь. Также рассматриваются семантические изменения в финансовых и экономических текстах, в частности на примере таких терминов, как "кредитный кризис", "финансовая помощь", и показано, как их первоначальные значения расширяются или сужаются, адаптируясь к новым социальным и экономическим условиям. Семантические изменения в переводе играют важную роль в адаптации языка к культурным и экономическим условиям.

Ключевые слова: семантическое расширение, семантическое сужение, финансовая терминология, экономические тексты, культурная адаптация, изменения в языке.

Tarjima jarayoni faqat tilning so'zlarini bir tilidan ikkinchi tiliga o'zgartirishdan iborat emas. U, shuningdek, madaniyatlararo muloqotda, ma'no va tushunchalarning yangi kontekstda shakllanishi va moslashishini ham o'z ichiga oladi. Semantik

kengayish va torayish jarayonlari, ayniqsa moliyaviy va iqtisodiy matnlarda, tarjima jarayonining muhim qismlarini tashkil etadi. Bu jarayonlar, biror so'z yoki iboraning ma'nosining kengayishi yoki torayishini anglatadi va bu o'zgarishlar til va madaniyatlar o'rtasidagi farqlarni, shuningdek, zamonaviy ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarni aks ettiradi.

Semantik kengayish — so'z yoki iboraga yangi kontekstual yoki madaniy nuansalarni qo'shish orqali uning ma'nosini kengaytirishdir. Bu jarayon ko'pincha, maqsad tilida manba tilining to'liq ifodasini ta'minlash uchun yuzaga keladi. Masalan, "kredit inqirozi" yoki "moliyaviy yordam" kabi moliyaviy atamalar, o'zlarining dastlabki ma'nolaridan kengroq tushunchalarni aks ettirgan holda tarjimaga kiradi.

Bundan farqli o'laroq, semantik torayish, biror so'zning dastlabki keng yoki umumiy ma'nosining aniqroq va cheklangan shaklga o'tishini anglatadi. Bu jarayon, ayniqsa, moliyaviy va iqtisodiy terminologiyada ko'plab misollar bilan ko'rinadi, chunki yangi iqtisodiy sharoitlar va texnologik o'zgarishlar so'zlarning ma'nosini toraytiradi.

Ushbu maqolada semantik kengayish va torayishning tarjimadagi o'rni va ular qanday qilib moliyaviy va iqtisodiy matnlarni tarjima qilishda yangi ma'nolarni keltirib chiqarishini ko'rib chiqamiz. Tarjimonlar, atamalarni yangi madaniy va iqtisodiy sharoitlarga moslashtirishda semantik o'zgarishlarning ahamiyatini anglashlari zarur. Maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi semantik kengayish va torayishning zamonaviy misollarini tahlil qilib, bu jarayonlarning til va madaniyatlararo muloqotda qanday o'zgarishlarga olib kelishini ko'rsatamiz.

Newmark (1988) o'zining "A Textbook of Translation" asarida semantik kengayish tarjimaning ijodiy va moslashuvchan tomonlaridan biri ekanligini ta'kidlab, shunday yozadi: "Semantik kengayish, tarjimon so'z yoki iboraga kontekstual yoki madaniy nuansalarni qo'shganda yuzaga keladi, bu orqali manba tili ma'nosining to'liq maqsad tili orqali ifodalanishini ta'minlashga xizmat qiladi." [1]. Bu usul, ayniqsa, madaniy, texnik va ijtimoiy sohalarida muhimdir, chunki maqsad tilida ba'zan biror tushunchani anglatadigan ekvivalent mavjud bo'lmaydi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, semantik kengayish jarayoni nafaqat tilning leksik imkoniyatlarini oshiradi, balki madaniyatlararo muloqotning samaradorligini ham ta'minlaydi. Hatim va Mason (1997) o'z asarlarida madaniy moslashuv doirasida semantik kengayish tarjimaning ijtimoiy aspektlarini o'rganishda dolzarb ekanligini qayd etadilar: "Tarjima ko'pincha madaniy va kontekstual farqlarni bartaraf etish uchun semantik kengayishni talab qiladi." [2].

Masalan, "kredit inqirozi" (*credit crunch*) yoki "moliyaviy yordam" (*bailout*) kabi atamalar iqtisodiy sharoitlarning rivojlanishi bilan bog'liq holda o'z ma'nolarini o'zgartirgan.

Ingliz tilida matn: "The **credit crunch** in 2008 led to widespread economic instability, with banks unwilling to lend and businesses struggling to stay afloat."

Tarjimasi: "2008-yilgi kredit inqirozi keng miqyosdagi iqtisodiy notinchlikka olib keldi, banklar kredit berishga tayyor emas edi va kompaniyalar hayotini saqlab qolishda qiynalardi."

"Credit crunch" – Bu atama *dastlab kredit berishning sezilarli darajada kamayishiga* ishora qilgan. Ammo, iqtisodiy inqirozlar davrida, u "*kredit olishning imkoniyatsizligi*", "*moliyaviy bozorlardagi notinchlik*" yoki "*banklarning kredit berishdagi ehtiyotkorligi*" kabi kengaytirilgan ma'nolarga ega bo'ldi. Bu yerda semantik kengayish (semantic broadening) yuz bermoqda, chunki atama dastlabki cheklangan ma'nodan iqtisodiy tizimning umumiy muammolarini aks ettiruvchi kengroq ma'noga ega bo'ldi.

"Bailout" – Bu atama aslida biror kompaniyaning yoki hukumatning moliyaviy inqirozga tushgan tashkilotga moliyaviy yordam ko'rsatish jarayonini anglatadi. Dastlab bu atama xususiy kompaniyalar uchun ishlatilgan, ammo keyinchalik davlatning moliyaviy yordam ko'rsatish siyosatini ifodalovchi keng ma'noga ega bo'ldi. Bu semantik kengayish va yaxshilanish (amelioration) bilan bog'liq, chunki dastlabki negativ tasavvurlar (moliya yordami faqat davlatning iqtisodiy inqirozga duchor bo'lgan shaxslar yoki kompaniyalarga yordam ko'rsatishi) o'zgarib, ijtimoiy va iqtisodiy kontekstda yanada ijobiy va mustahkam jamiyatlar yaratishga yo'naltirilgan tushunchaga aylangan.

"Kredit inqirozi" – Bu atama o'zbek tilida ham ingliz tilidagi "*credit crunch*" kabi iqtisodiy sharoitdagi moliyaviy muammolarni aks ettiradi. Ammo, o'zbek tilida, bu so'z kengroq ma'noga ega bo'lib, "*kredit olishning imkonsizligi*" yoki "*bank tizimidagi ishonchsizlik*" kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi. Semantik kengayish jarayoni, aslida kredit berishdagi muammolarni anglatadigan atama, iqtisodiy tizimning keskin o'zgarishlariga bog'liq holda yangi ma'nolarni qabul qilganini ko'rsatadi. "Kredit inqirozi" atamasi nafaqat kredit bozoridagi qiyinchiliklarni, balki butun iqtisodiy muammolarni ifodalashga o'tgan.

"Moliyaviy yordam" – O'zbek tilida, bu atama "*bailout*" atamasiga o'xshash ravishda davlat tomonidan moliyaviy yordam ko'rsatishni bildiradi. Biroq, o'zbek tilidagi "*moliyaviy yordam*" so'zi ba'zan torroq, nozikroq iqtisodiy vaziyatlarni ifodalash uchun ishlatiladi va bu semantik yaxshilanish (amelioration) va metafora sifatida ishlatiladi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi semantik o'zgarishlar, ayniqsa moliyaviy-iqtisodiy kontekstdagi terminlarning o'zgarishi, tilda kengayish va torayish kabi jarayonlarni aks ettiradi. Jumladan, "*Credit crunch*" va "*kredit inqirozi*" kabi atamalar dastlab bir-biriga o'xshash bo'lsa-da, iqtisodiy sharoitlar va texnologik rivojlanishlarning natijasida ularning ma'nolari kengayib, ijtimoiy va madaniy jihatlarni aks ettiruvchi yangi ma'nolarni qabul qilgan. "*Bailout*" va "*moliyaviy yordam*" atamalari ham xuddi shu tarzda semantik o'zgarishlarga uchragan, buning natijasida iqtisodiy muammolarni hal etishdagi ijtimoiy va davlat siyosatining ahamiyatini ko'rsatuvchi yangi tushunchalar paydo bo'lgan. Bu jarayonlarning tahlili, moliyaviy-iqtisodiy matnlarni tarjima qilishda terminlarning ma'nolarining o'zgarishlarini aniqlashga yordam beradi va tilni madaniy va iqtisodiy sharoitlarga moslashtirishni osonlashtiradi.

Semantik torayish so'zning dastlabki keng yoki umumiy ma'nosi torayib, aniqroq yoki cheklangan ma'noga ega bo'lishi jarayonidir. Bu o'zgarish so'zning dastlabki ko'proq umumiy yoki keng ma'nosidan, faqat biror aniq kontekstga yoki

holatga nisbatan ishlatiladigan maxsus ma'noga o'tishini anglatadi. Semantik torayish so'zlarning yangi ijtimoiy, madaniy, yoki texnologik sharoitlarga moslashishi natijasida yuzaga keladi. [3]. Semantik torayish ko'pincha biror so'zning ma'nosining kuchayishi yoki faqat ma'lum bir soha yoki kontekstdan foydalanilishi bilan bog'liq. Bu jarayon, ayniqsa, moliyaviy va iqtisodiy matnlarda tez-tez uchraydi, chunki so'zlar yangi ma'nolarni qabul qilish uchun tez-tez moslashadi [4].

Ingliz tilida matn: *"The stock market crashed in 2008, leading to a global recession that affected economies worldwide."*

Tarjima: *"2008 yilda aksiyalar bozorining qulashidan so'ng, dunyo bo'ylab iqtisodiy inqiroz yuzaga keldi."*

"Market" leksemasi keng ma'noda "bozor" yoki "savdo maydoni" deb tarjima qilinishi mumkin. Ammo, moliyaviy-iqtisodiy kontekstda, ayniqsa, "stock market" (aksiyalar bozori) kabi iboralar so'zning ma'nosini toraytiradi. U moliyaviy bozorlarga, aksiyalar va boshqa investitsiya vositalariga taalluqli aniq bir sohani anglatadi. Bu so'zning dastlabki umumiy "bozor" ma'nosi, moliyaviy tizimlarda faqat aksiyalar va ularga bog'liq operatsiyalarni tasvirlaydigan maxsus bir ma'no bilan torayadi. Shuning uchun, bu atamaning semantik torayishi, moliyaviy-iqtisodiy tizimdagi aniq sohani anglatadi.

Ingliz tilida matn: *"The bank provides loans to individuals and businesses."*

Tarjima: *"Bank shaxslar va bizneslarga kreditlar taqdim etadi."*

Tahlil: "Bank" so'zi avval umumiy ma'noda "qirg'oq" yoki "sohil" (masalan, daryo yoki ko'l bo'yidagi qirg'oq) degan ma'nolarga ega bo'lgan. Ammo, moliya sohasida, bu so'z faqat biror moliyaviy muassasani, ya'ni kreditlar, depozitlar, moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotni anglatadigan aniq va maxsus ma'noga ega bo'ldi. Demak, "bank" so'zining dastlabki keng va umumiy ma'nosi (sohil) torayib, faqat moliyaviy muassasalarni ifodalovchi so'zga aylangan. Bu holat semantik torayishni ifodalaydi.

Semantik torayishning mazmuni so'zning umumiy ma'nosining torayib, faqat bir kontekstda ishlatilishiga olib kelishini anglatadi. Bu jarayon ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar, madaniyat va texnologik rivojlanishlar tufayli yuzaga keladi [5]. Yangi sohalar yoki kontseptlar ishlab chiqilganda, ba'zi so'zlar eski, kengroq ma'nolarini tark etib, o'zgaruvchan ehtiyojlarga javob beradigan yangi, tor ma'nolarni oladi. Misolimizda "bank" so'zi moliyaviy tizimda ko'plab xizmatlar taqdim etadigan tashkilotga aylangan bo'lsa, aslida bu so'z o'zining dastlabki, keng ma'nosidan toraygan. Fikrimizni yana bir bosqa moliyaviy termindan yorqin misol orqali tahlil qilamiz.

Ingliz tilida matn: *"The stock market crashed in 2008, leading to a global recession that affected economies worldwide."*

Tarjima: *"2008 yilda aksiyalar bozorining qulashidan so'ng, dunyo bo'ylab iqtisodiy inqiroz yuzaga keldi."*

Tahlil: "Market" so'zi keng ma'noda "bozor" yoki "savdo maydoni" deb tarjima qilinishi mumkin. Ammo, moliyaviy-iqtisodiy kontekstda, ayniqsa, "stock market" (aksiyalar bozori) kabi iboralar so'zning ma'nosini toraytiradi. U moliyaviy

bozorlarga, aksiyalar va boshqa investitsiya vositalariga taalluqli aniq bir sohani anglatadi. Bu soʻzning dastlabki umumiy "bozor" ma'nosi, moliyaviy tizimlarda faqat aksiyalar va ularga bogʻliq operatsiyalarni tasvirlaydigan maxsus bir ma'no bilan torayadi. Shuning uchun, bu atamaning semantik torayishi, moliyaviy-iqtisodiy tizimdagi aniq sohani anglatadi.

Ingliz tilida matn: "*The bank introduced a new credit facility to help small businesses access funds during the financial downturn.*"

Oʻzbekcha tarjimasi: "*Bank kichik bizneslarga moliyaviy inqiroz davrida mablagʻ olishda yordam berish uchun yangi kredit imtiyozini joriy qildi.*"

Bu jumlagi "Credit facility" (kredit imtiyoz) soʻzi dastlab umumiy iqtisodiy atama sifatida ishlatilgan boʻlib, keng ma'noda kredit olish imkoniyatini bildiradi. Biroq, moliyaviy inqiroz (financial downturn) vaqtida "credit facility" atamasi aniqroq va torroq ma'noga ega boʻlishi mumkin, chunki banklar kichik bizneslarga moliyaviy yordam koʻrsatish uchun faqat ma'lum bir kredit mahsuloti yoki xizmatini taqdim etmoqda. Ya'ni, bu atama nafaqat kredit olish imkoniyatini, balki *muayyan sharoitlar va maxsus yordam paketini* anglatadi. Shunday qilib, "credit facility" atamasi oʻzining dastlabki keng ma'nosidan toraygan va oʻzining aniq shartlar bilan cheklangan ma'nosiga oʻzgargan.

Moliyaviy sohalardagi semantik kengayish va torayish jarayonlari koʻpincha texnologik, ijtimoiy va iqtisodiy oʻzgarishlar bilan bogʻliq. Semantik kengayish soʻzlarning dastlabki ma'nolaridan kengroq, koʻproq sohalarga taalluqli boʻlgan ma'no oʻzgarishini koʻrsatadi. Misol uchun, "*blockchain*" texnologiyasining dastlabki kriptovalyutalar bilan bogʻliq *cheklangan* ma'nosi, bugungi kunda xavfsizlik va shaffoflikni ta'minlash uchun turli sanoatlar va sohalarda qoʻllanilmoqda, bu esa soʻzning semantik kengayishiga olib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. Prentice Hall.
2. Hatim, B., & Mason, I. (1997). The Translator as Communicator. Routledge.
3. Nida, E., & Taber, C. R. (1969). The Theory and Practice of Translation. Brill.
4. Baker, M. (2011). In Other Words: A Coursebook on Translation (2nd ed.). Routledge.
5. Catford, J. C. (1965). A Linguistic Theory of Translation. Oxford University Press.